

O‘ZBEKISTONDA RESURSLARGA NISBATAN SOLIQ SOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Xakimov Nuriddin Azizberdiyevich

*Surxondaryo viloyat soliq boshqarmasi soliq to‘lovchilarga
xizmat ko‘rsatish bo‘limi boshlig‘i*

Annotatsiya: Maqolada resurs soliqlarining budget daromadlaridagi ahamiyati, O‘zbekistonda resurs soliqlari turlari bo‘yicha tushumlar o‘zgarishi tahlili, resurs soliqlari ma‘muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar atroflicha yoritilgan. Shuningdek ushbu maqolada O‘zbekistonda resurs soliqlarini undirish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Soliqlar, budget, budget daromadlari, resurs, resurs soliqlari, yer solig‘i, yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, soliq to‘g‘risidagi qonunchilik.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ РЕСУРСОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: В статье подробно рассмотрено значение ресурсных налогов в доходах бюджета, проведен анализ изменения доходов в Узбекистане по видам ресурсных налогов, а также реализуемые реформы по совершенствованию администрирования ресурсных налогов. Также в данной статье разработаны соответствующие предложения и рекомендации по совершенствованию механизма сбора ресурсного налога в Узбекистане.

Ключевые слова: Налоги, бюджет, доходы бюджета, ресурсы, ресурсные налоги, земельный налог, налог за пользование недрами, налог за пользование водными ресурсами, налоговое законодательство.

IMPROVEMENT OF RESOURCE TAXATION MECHANISM IN UZBEKISTAN

Abstract: The article examines in detail the importance of resource taxes in budget revenues, analyzes changes in revenues in Uzbekistan by type of resource taxes, as well as ongoing reforms to improve the administration of resource taxes. This article also develops relevant proposals and recommendations for improving the mechanism for collecting resource taxes in Uzbekistan.

Key words: Taxes, budget, budget revenues, resources, resource taxes, land tax, tax for the use of subsoil, tax for the use of water resources, tax legislation.

Jahonda global raqobatning kuchayib borishi sharoitida tabiiy resurslardan samarali foydalanishda soliq tizimining ta'sirchanligini oshirish yo'llari bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, tabiiy resurslar uchun to'lovlarning nazariy va amaliy masalalarini har tomonlama o'rganib chiqish, mazkur sohadagi amaldagi soliq qonunchiligiga o'zgartirishlar kiritish, tabiiy va narx rentasini taqsimlash jarayonini ta'minlovchi barcha turdagi to'lovlarni inventarizatsiyadan o'tkazish, soliq va soliqsiz to'lovlarni ajratish, shuningdek, tabiiy resurslarning ayrim turlari bo'yicha soliqqa tortish tamoyillarini o'zgartirish, mamlakat budjet tizimi daromadlarida renta komponentini oshirish, qattiq foydali qazilmalarni qazib olish va eksportga yo'naltirilgan soliqqa tortish tizimini takomillashtirish yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda jadal ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash sharoitida davlatning iqtisodiyot siyosatida cheklangan tabiiy resurslar jumlasiga kiruvchi muhim strategik xomashyo mahsulotlaridan milliy iqtisodiyot taraqqiyoti maqsadlarida samarali foydalanishga qaratilgan iqtisodiy va moliyaviy instrumentlarning rolini oshirish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. "Chet el investitsiyalarini keng jalb qilgan holda foydali qazilma konlarini sanoat usulida o'zlashtirish, zamonaviy usullar va texnologiyalar yordamida geologiya-qidiruv ishlarini rag'batlantirish hamda yer qa'ridan foydalanuvchilarga soliq solish tartibini, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan va ekspertlarni jalb qilgan holda, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash tartibini yanada takomillashtirish"¹ bo'yicha qator vazifalar belgilab berilgan. Yuqoridagi vazifalar ijrosini ta'minlash yangi o'zlashtirilayotgan tabiiy resurslar manbalari asosida ishlab chiqarishni soliq dastaklari orqali rag'batlantirish, tabiiy resurslarni qazib olish va ularga ishlov berish doirasida yuzaga keluvchi texnologik yo'qotishlarni aniqlash tartibini takomillashtirish, soliq solish obyekti tarkibidan chiqarilishi maqsadga muvofiq bo'lgan foydali qazilmalar tarkibini belgilash, ularni vazib olish uchun litsenziya to'lovi joriy etish hamda to'lov mablag'larini turli miqyosdagi budjetlar o'rtasida samarali taqsimlash orqali tabiiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasining Yer osti resurslari to'g'risidagi qonuniga muvofiq, "yer osti resurslari O'zbekiston Respublikasining mulki bo'lib, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasida bo'ladi, yer qa'rining foydalanilayotgan va foydalanilmayotgan uchastkalari, shuningdek texnogen mineral hosilalar yer osti resurslari davlat fondini tashkil etadi, o'z navbatida yer qa'ridan foydalanish pullik sanaladi"², shu bilan birgalikda ayrim hollarda ulardan bepul foydalanish holatlari ham mavjud bo'ladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-oktyabrdagi PF-6319-son "Geologiya-qidiruv ishlarini yanada rag'batlantirish va yer qa'ridan foydalanuvchilarga soliq solish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. – www.lex.uz

² O'zbekiston Respublikasining Yer osti boyliklari to'g'risidagi qonuni

O‘zbekiston soliq tizimida tabiiy resurslar bilan bog‘liq soliqlar³

| № | Soliq va soliqsiz to‘lov turi | Soliq to‘lovchisi |
|----|--|--|
| 1. | Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i | Mulq huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari yuridik shaxslar |
| 2. | Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i | Mulq huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan yoki etmagan holdagi dehqon xo‘jaliklari jismoniy shaxslar |
| 3. | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq | O‘zbekiston Respublikasi hududida suvdan birlamchi foydalanishni yoki suvni iste‘mol qilishni amalga oshiruvchilar |
| 4. | Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq | Yer qa‘ridan foydali qazilmalarni qazib oluvchi, mineral xom ashyodan va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib oluvchi yer qa‘ridan foydalanuvchilar |

Keltirilgan 1-jadvaldan ko‘rish mumkinki, O‘zbekiston soliq tizimida tabiiy resurslar bo‘lgan yer, yer qa‘ri, suv resurslaridan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan foydalanganda, ularga egalik qilganlik holatlarida soliqlar va soliqsiz to‘lovlar ko‘rinishidagi to‘lovlarni to‘laydilar. O‘z navbatida tabiiy resurslar uchun to‘lovlarning undirilishi asosi sifatida ushbu resurslardan foydalanish masalasi muhim hisoblanadi. Shu boisdan mazkur resurslardan foydalanish tartiblarini ko‘rib chiqishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Qonunchilikka muvofiq, yuridik va jismoniy shaxslar yer qa‘ridan foydalanuvchi bo‘lishi mumkin bo‘lsa, suv resurslarini suv obyektidan olmagan holda ulardan o‘z ehtiyojlari uchun foydalanuvchi yuridik yoki jismoniy shaxslar uning foydalanuvchisi hisoblanadi.

Quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkinki, mamlakatimizda resurs soliqlari tushumi doimiy ravishda o‘sib bormoqda O‘zbekistonda 2019-2023-yillarda resurs soliqlari 5 661,3 mlrd.so‘mga yoki 132,7 %ga, shundan, yer solig‘i 4 576,9 mlrd.so‘mga (297,9%), suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

³ O‘zbekistondagi amaldagi qonunchilik asosida muallif tomonidan tuzilgan.

476,9 mlrd.so‘mga (251,6%), yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq 607,5 mlrd.so‘mga (1041,1%) oshgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, resurs soliqlari tushumining asosiy qismini yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq tashkil etadi.

2-jadval

O‘zbekistonda resurs soliqlari turlari bo‘yicha tushumlar o‘zgarishi tahlili⁴

mlrd.so‘m

| № | Soliq turlari | 2019 y | 2020 y | 2021 y | 2022 y | 2023 y | O‘zgarishi | |
|-------------|--|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|----------------|--------------|
| | | | | | | | +;- | % |
| 1 | Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq | 14 692,8 | 16 417,1 | 15 811,9 | 13 887,4 | 15 300,3 | 607,5 | 104,1 |
| 2 | Yer solig‘i | 2 313,2 | 2 386,7 | 4 082,8 | 5 305,9 | 6 890,1 | 4 576,9 | 297,9 |
| 3 | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq | 314,5 | 478,8 | 684,4 | 704,1 | 791,4 | 476,9 | 251,6 |
| Jami | | 17 320,5 | 19 282,6 | 20 579,1 | 19 897,4 | 22 981,8 | 5 661,3 | 132,7 |

Mazkur davrda resurs soliqlari tarkibida yer solig‘i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq tushumlarida sezilarli o‘shish kuzatilgan. Fikrimizcha, buning asosiy omili soliq stavkalarining oshishi hisoblanadi.

tabiiy resurslarni samarali foydalanishda soliqqa tortish mexanizmlari bu bizningcha, tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliqlar va yig‘imlarni joriy etilgandan so‘ngi soliqqa tortish bilan bog‘liq barcha qo‘llaniladigan soliq elementlari hamda soliqqa tortish usullarini qo‘llashni o‘ziga olgan iqtisodiy jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Albatta, bu mexanizmlarning ishlashi esa, davlatning soliq siyosatiga bog‘liq bo‘ladi. Bu mexanizmlarning ishlashi bilan amaliy holatni ham nazariy jihatdan ham amaliy jihatdan monografiyaning avvalgi boblarida ko‘rib chiqdik va olingan ilmiy xulosalarga tayanib tabiiy resurslarni samarali foydalanishda soliqqa tortish mexanizmlarining qo‘llanilishida bir qator ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan muammolarni aniqladik hamda amaldagi jarayonni yanada takomillashtirish zarurati tug‘ilganligini ham ta’kidlash mumkin.

Dastlab bu muammolarning ayrimlarining xususiyatlarini keltirib o‘tamiz.

Muammolarning dastlabkilari, bu suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bilan bog‘liq muammolardir. Keyingi vaqtlarda soliq islohotlari doirasida resurs soliqlari, jumladan suv solig‘i ma’urchiligini ta’minlash bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, suv resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida, 2020-yildan qishloq xo‘jaligi korxonalarini ham suv solig‘i to‘loviga o‘tkazilganligi natijasida soliq to‘lovchilar soni oxirgi 4 yilda 137,3 mingtaga yetib, 40 baravarga

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

oshdi. Bundan tashqari, soliq hisobotlari soddalashtirilib, hisobot shakllari 7 tadan 2 taga kamaytirildi hamda har bir faoliyat turi bo'yicha alohida soliq stavkalari belgilanishi soliq to'lovchilar tomonidan ijobiy qabul qilindi.

Bu o'z navbatida ushbu soliqdan budjetga tushumlarning tushishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, 2021-yilda jami 684,4 mlrd.so'm tushum ta'minlanib, 2018-yilga nisbatan 5,3 baravarga o'sdi. Shu bilan birga, o'rganishlar suv resurslarini hisobga olishda quyidagi tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatdi.

Jumladan: suv olish nuqtalari suv o'lchash uskunalari bilan jihozlanmaganligi natijasida (vodoprovod tarmoqlaridan tashqari) foydalanilgan suv hajmi to'g'risida iste'molchilar kesimidagi ma'lumotlar mavjud emasligi mavjud soliq turi bo'yicha soliq tushumlariga salbiy ta'sir etmoqda.

Ma'lumki, soliq tizimidagi islohotlarning maqsadlaridan biri bu ham milliy, ham chet el investorlarini jalb qilish orqali ularni soliqlar orqali rag'batlantirish hisoblanadi. Ayni paytga qadar amalda bo'lgan tizim investitsiya siklining dastlabki bosqichida katta soliq yuki qo'llanilgani tufayli investitsiya kiritishni boshqa mamlakatlardagi singari samarali rag'batlantirmagan. Shuningdek asosiy neft va gaz konlari davlat ulushi mavjud korxonalar tarkibida bo'lib, kam rentabelli va tasdiqlangan zaxirasi uzoq yil muddatga yetmaydigan konlar ishlab chiqarishga jalb etilmasdan qolmoqda. Shu bilan birga, yangi neft va gaz quduqlari uchun yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha imtiyozlar belgilanmagan bo'lib, quduq foydalanishga kiritilgan oydan boshlab dastlabki 2 yilda soliqdan ozod qilishni nazarda tutuvchi normalar mavjud emas.

Mazkur muammoning yechimlari sifatida yangi neft va gaz quduqlarining – ular foydalanishga topshirilgan oydan boshlab ikki yil muddatga hamda yangi neft va gaz quduqlariga nisbatan soliq imtiyozlarining amal qilish muddati tugagandan keyin uch yil davomida belgilangan soliq stavkasining 50 foizga kamaytirish, soliq stavkasi qo'llash bo'yicha bergan takliflari Soliq kodeksining 414 - moddasida tasdiqlanib, amaliyotga joriy etildi. Buning natijasida esa yangi konlarni o'zlashtirish uchun korxonalar ixtiyorida o'rtacha hisobda 134 mlrd.so'm qolishi kutilmoqda.

Konlardan qazib olingan foydali qazilmalar sanoat yo'sinida qayta ishlatilgandan so'ng foydali komponent hosil bo'lmoqda. Soliq to'lovchilar toifasini belgilashda takrorlovchi normalar mavjud bo'lib, yer qa'ridan foydali qazilmalarni qazib olishni va texnogen mineral hosilalardan foydali qazilmalarni ajratib olishni amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar soliq solish maqsadida soliq to'lovchilar deb e'tirof etilsa bo'ladi. Shu sababdan, foydali komponent foydali qazilmaning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lgan tarkibiy qismi hisoblanganligi sababli ushbu jumlaning chiqarib tashlash lozim. "Yer osti resurslari to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra foydali komponent – foydali qazilmaning sanoat yo'sinida ishlatish maqsadida qazib olish texnologik jihatdan mumkinligi va iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lgan tarkibiy qismi hisoblanishi kerakligi bo'yicha bergan takliflarimiz inobatga olinib, Soliq kodeksining 449-

moddasidan foydali komponentlarni ajratib oluvchi yer qa'ridan foydalanuvchilar jumlasini chiqarib tashlandi. Respublikamiz hududida yer qa'ridan foydali qazilmalarni qazib olishni va texnogen mineral hosilalardan foydali qazilmalarni ajratib olishni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni soliq to'lovchilari deb e'tirof etilishi Soliq qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan.

Yer qa'ridan foydalanuvchilarning texnik iqtisodiy asos hujjatlarida tabiiy yo'qotish normalari belgilangan bo'ladi. Mazkur yo'qotishlar toifasiga foydali qazilmalarni qazib olishdagi yo'qotishlar, tashish jarayonidagi yo'qotishlar, dastlabki ishlov berish va qayta ishlash jarayonidagi yo'qotishlar kiritiladi. Uglevodorod xomashyosini qazib olish jarayonida gaz, neft va gaz kondensatining tabiiy yo'qolishi va texnologik jarayonlardagi yo'qotishlar mazkur sohadagi vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanadi. Biroq amaliyotda ularning normalari soliq bazasini aniqlashda qo'llanilmasdan qolmoqda. Texnologik jarayon yakuniy mahsulot tayyor bo'lgandan so'ng tugatilsada, soliq bazasini aniqlashda boshqa bosqichlardagi yo'qotishlar inobatga olinmasdan qolgan.

Foydali qazilmalarni qazib olish (ajratib olish) va qayta ishlash bilan bog'liq texnologik sikl doirasida foydali qazilmalar hajmini aniqlashtirish yuzasidan bergan takliflari amaliyotga joriy etilib, bunda texnologik yo'qotishlar normalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli organ tomonidan, ularning yo'qligida esa – soliq to'lovchi tomonidan tasdiqlanishi nazarda tutilgan. Ushbu berilgan taklif asosida qazib olish, birlamchi ishlov berish, qayta ishlash va transportda tashish doirasida yuzaga keladigan texnologik yo'qotishlarni hisobga olgan holda, normalar doirasida, bunday normalar mavjud bo'lmaganda esa soliq to'lovchi tomonidan tasdiqlangan normalar doirasida aniqlash taklif etiladi.

Investorlarga kapital xarajatlarni qoplash va investitsiyalar bo'yicha talab qilingan daromadlarni olish imkonini beradigan tizim yaratilmagan. Soliqning past stavkalari va investitsiyalarni qoplash uchun olinadigan daromadlarning yetarliligi tarkibida foydali qazilmalar yuqori bo'lmagan konlarni ishlashga rag'batlantirilishi, narxlarning oshishi, daromadlarning oshishidan olingan qo'shimcha daromadlar davlat va investorlar o'rtasida taqsimlanishi lozim.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasini kamaytirish bilan bir qatorda yangi konlarda neft, tabiiy gaz, gaz kondensati, qimmatbaho, rangli, nodir va radioaktiv metallarni qazib olishni amalga oshiruvchi yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun renta daromadi solig'i joriy etilmagan.

Muammoning yechimi sifatida neft, tabiiy gaz, gaz kondensati, qimmatbaho, rangli va (yoki) radioaktiv metallarni, nodir elementlarni va nodir yer elementlarini qazib oluvchi va (yoki) ularni texnogen mineral hosilalardan ajratib oluvchi, shuningdek, uglevodorod xom ashyosini qazib oluvchi yuridik shaxslar uchun maxsus renta solig'i joriy etish taklif qilinadi. Renta solig'i o'rta muddatli istiqbolda o'z natijalarini ko'rsatishi, bunda u yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun yuk bo'lmasligi uchun faqat

barcha kapital chiqimlar qoplangandan keyin to‘lanishi lozim. Misol uchun, investor geologiya-qidiruv ishlariga 100 mln AQSh dollari ekvivalentida investitsiya kiritdi. U foyda hisobidan ularni qoplamaguncha, renta solig‘i to‘lamasligi maqsadga muvofiq. Shuningdek, renta daromadi solig‘i yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliqning past stavkalari, geologiya-qidiruvda budjetga to‘lovlarni minimallashtirish bilan birgalikda investorlarga kapital xarajatlarni qoplash va qo‘yilmalar bo‘yicha talab qilingan daromadlarni olish imkonini berishi kerak.

Xorijiy investorlarni qo‘llab quvvatlash maqsadida foydali qazilmalarni qazib olish huquqini qo‘lga kiritgunga qadar mazkur faoliyat doirasida qilgan xarajatlarini soliq bazasidan chegirishi lozimligi to‘g‘risida bergan takliflar amaliyotga joriy etilib, mazkur takliflar asosida metallarni yoki uglevodorod xom ashyosini qazib olish (ajratib olish) huquqi uchun ruxsatnoma (litsenziya) olingan sanaga qadar haqiqatda amalga oshirilgan va tegishli litsenziyalangan uchastka bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xarajatlar jumlasiga kiritildi.

O‘rganilmagan hududlar bo‘yicha foydali qazilmalarni aniqlash va razvedka qilish huquqi uchun litsenziya “birinchi kelgan — birinchi oladi” tamoyili bo‘yicha berilishi lozim deb hisoblaymiz. Bundan tashqari istiqbolli konlar bo‘yicha auksion, o‘rganilgan maydonlar bo‘yicha — tanlov savdolari o‘tkazilishi lozim. Shuningdek, tanlov savdolariga nafaqat geologik o‘rganish uchun uchastkalardan foydalanish huquqini, balki tijoriy salohiyatga ega bo‘lgan uglevodorodlar, qimmatbaho, rangli, nodir va radioaktiv metallar va boshqa turdagi rudali foydali qazilmalar bo‘yicha avval o‘rganilgan yer qa‘ri uchastkasidan foydalanish huquqini ham qo‘yish, tanlov savdolari tashkilotchilari yoki ishtirokchilari renta daromadi solig‘i bo‘yicha stavkalarining oshirilgan miqdorini taklif qilish huquqiga ega bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Chet el investitsiyalarini keng jalb qilgan holda foydali qazilma konlarini sanoat usulida o‘zlashtirish, zamonaviy usullar va yer qa‘ridan foydalanuvchilarga soliq solish tartibini yanada takomillashtirish, tijorat salohiyatiga ega bo‘lgan uglevodorodlar, qimmatbaho, rangli, nodir va radioaktiv metallar va boshqa turdagi rudali foydali qazilmalar obyektlari bo‘yicha geologik o‘rganish bundan tashqari, tanlov savdolari tashkilotchisi yoki tanlov savdolari ishtirokchilariga foydali qazilmalarni qazib olishda ayrim soliq turlari bo‘yicha soliq stavkalarini oshirilgan miqdorda taklif qilindi.

Yer qa‘ri uchastkalarini geologik jihatdan o‘rganish jarayonida imzoli bonuslarni to‘lash va tasdiqlangan konlar bo‘yicha qazib olish huquqi vujudga kelganda tijoratbop topilma bonusini undirish amaliyoti xorij mamlakatlarida allaqachon qayta ko‘rib chiqilgan. Buning o‘rniga geologik o‘rganishlar uchun yer qa‘ridan foydalanganlik uchun har yillik litsenziya to‘lovi joriy qilinadi. U ajratilgan maydon va foydali qazilma turlaridan kelib chiqib hisoblab chiqiladi va nisbatan katta bo‘lmaydi. Geologiya-qidiruv, izlanish ishlari o‘tkazish qismida yer solig‘ining soliq solish obyekti hisoblanmasligi lozim, bu esa hali o‘rganilmagan yer qa‘ri uchastkalarida geologik jihatdan o‘rganish

ishlarini amalga oshirishni ragʻbatlantiradi.

Oʻrganilmagan hududlar boʻyicha foydali qazilmalarni aniqlash va razvedka qilish huquqi uchun litsenziya “birinchi kelgan — birinchi oladi” tamoyili boʻyicha berilishi lozim. Geologiya-qidiruv oʻtkazish uchun ajratilgan yer uchastkalari yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻi solish obyekti hisoblanmasligi ajratilgan maydon va foydali qazilma turlaridan kelib chiqib litsenziya toʻlovi joriy qilinishi, geologik oʻrganishlar uchun yer qaʻridan foydalanganlik uchun har yillik litsenziya toʻlovi respublika budjetiga – 70 %, viloyat mahalliy budjetiga-15 %, tuman (shahar) mahalliy budjetiga -15 % yoʻnaltirish taklifi belgilandi. Mazkur takliflar Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Geologiya-qidiruv ishlarini yanada ragʻbatlantirish va yer qaʻridan foydalanuvchilarga soliq solish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni ishlab chiqilishida inobatga olindi hamda amaliyotga joriy qilindi.

Daryolar, soylar, jilgʻalar va koʻllar muhofaza hududlarini va oʻzanlarini tozalash boʻyicha ishlarni samarali tashkillashtirishga alohida eʼtibor qaratish zarurati mavjud. Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan noruda foydali qazilmalar mavjud joylarda yer osti resurslari uchastkalaridan foydalanish huquqini beruvchi litsenziyaga ega boʻlmagan subyektlar tomonidan oʻzanlarni tozalash ishlari jarayonida noqonuniy tarzda qum-shagʻal materiallarini qazib olish ishlari davom etmoqda. Qonunchilikda mavjud boʻshliqlar daryolar oʻzanlari va suvni muhofaza qilish zonalari, koʻllar, suv omborlari, kanallar, kollektorlar va boshqa suv obyektlarini tozalash, shuningdek, ularning qirgʻoqlarini mustahkamlash ishlarini amalga oshirishda qum-shagʻal materiallarini ruxsatsiz qazib chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratmoqda. Oʻz navbatida, qum-shagʻal materiallarining ruxsatsiz qazib chiqarilishi aksariyat hollarda yer usti va yer osti suvlari kamayib ketishi, suvni muhofaza qilish zonalari botqoqlashishi va ifloslanishi, ularning qirgʻoqlari, sugʻorish tizimlari, transport va gidrotexnika infratuzilma obyektlarining buzilishiga, shuningdek, favqulodda holatlarning oldini olish boʻyicha tadbirlar samaradorligining pasayishiga olib kelmoqda.

Samarqand viloyati hududidagi barcha noruda foydali qazilmalar konlarida avtomatlashtirilgan nazorat tizimini joriy qilish hamda yer qaʻridan qazib olingan noruda foydali qazilmalar avtotransport vositalarida tashilishi tahlilini, tashish hujjatlaridagi yukni joʻnatuvchilar va oluvchilar, yuklab joʻnatiladigan noruda foydali qazilmalarning har bir turining nomi va miqdori toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni toʻplash va qayta ishlashni nazarda tutuvchi “Noruda foydali qazilmalarni nazorat qilish” avtomatlashtirilgan axborot tizimini davlat xususiy sheriklik asosida ishlab chiqish toʻgʻrisidagi taklifi soliqlar va yigʻimlar tushumi prognozining ishlab chiqilishiga imkoniyat berdi. Mazkur takliflar Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Noruda foydali qazilmalardan samarali foydalanish va ularni hisobga olish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 2021-yil 2-avgust kungi 483-son qarorida inobatga olingan.

Foydali qazilmalarni qazib olish davrida kompaniyalarning soliq solish rejimi

o'zgarishi lozim. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari saqlanib qoladi, biroq kiritiladigan o'zgartirishlar loyihasi eng ko'p investitsiyalar talab qiladigan foydali qazilmalar turlari bo'yicha stavkalarni jiddiy kamaytirilishi, masalan, gaz bo'yicha ular 3 baravar (30%dan 10%gacha), neft bo'yicha — 2 baravar (20%dan 10%gacha), oltin va mis bo'yicha — 30%ga, uran bo'yicha — 20%ga kamaytirilishi, bu yer qa'ridan foydalanuvchining oshirilgan chiqimlarni talab qiladigan foydali qazilmalarni qazib olish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun amalga oshirilishi zarur. Yuqori soliq stavkalarida u o'z xarajatlarini oqlash uchun tabiiy resurslarni faqat tarkibida yuqori darajada foydali qazilmalar bo'lganda ishlatishga harakat qiladi. Stavkalarining kamaytirilishi samarasi kamroq bo'lgan konlarning rentabelligini oshiradi. Bunda stavkalar boshqa mamlakatlarda belgilangan stavkalar bilan raqobatlashishi mumkin. Tanlov savdolari tashkilotchilari yoki ishtirokchilari renta daromadi solig'i bo'yicha stavkalarining oshirilgan miqdorini taklif qilish huquqiga ega bo'lishi zarur deb hisoblaymiz.

Demak, yuqoridagi amalga oshirgan ilmiy tahlillar shundan dalolat va ilmiy xulosalarni beradiki, bugungi kunda amaldagi soliq tizimi doirasida amalga oshirilayotgan soliq ma'murchiligi hamda soliq undirish mexanizmlari tabiiy resurslardan samarali foydalanishda soliqlarning ta'sirchanligi soliqlarning adolatlilik tamoyili jihatdan yetarli emas. Bu esa, yuqoridagi aniqlangan ilmiy-amaliy muammolarning yechimlariga qaratilgan ilmiy takliflarni amaliyotga joriy etilishi o'z mazmuniga ega bo'lib, ularning aksariyati bugungi kunda joriy qilinishi natijasida ijobiy samarasini bera boshladi.

Dunyoning aksariyat davlatlarning iqtisodiy siyosatida mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi muhim strategik tabiiy resurslardan milliy iqtisodiyot manfaatlari yo'lida maqsadli va samarali foydalanishga ustuvorlik bersa, boshqa tomondan bu maqsadga erishishning moliyaviy instrumentlaridan keng foydalanishga ham keng e'tibor berib kelinmoqda. Bu moliyaviy instrumentlardan eng muhimlaridan va samarali vositalardan biri sifatida soliq tizimi yuzaga chiqadi. Xorij davlatlarida bu tabiiy resurslarni soliqqa tortishda aynan ularning xususiyatlari bilan birgalikda davlat budjetining manfaatlari ham hisobga olinadi. Jahon mamlakatlar tajribasida yer qa'ri bo'lgan resurslar bo'lgan tabiiy resurslarga oid iqtisodiy siyosati va uning asosiy bo'g'ini bo'lgan soliq siyosatining umumiy yo'nalishlarida xuddi O'zbekistondagi amaliyotga xos xususiyatlarni ko'rish mumkin.

Yer qa'ridan foydalanish yer va suv kabi resurslaridan farqli ravishda ma'lum bir o'ziga xos murakkablikka ega ishlab chiqarishni talab etadi, shunga mos ishlab chiqarish texnologiyalarni talab qiladi, o'z navbatida texnik mutaxassislariga ham ehtiyoj tug'iladi, ya'ni, soddaroq qilib aytganda suv va yer resurslaridan foydalanishdan ko'ra yer qa'ridan foydalanish darajasi murakkablikka hamda maxsus ruxsatnomalarni ham talab qiladi. Aynan bu xususiyatlar jahon davlatlarida tabiiy resurslarni soliqqa tortishda va soliq tizimining rolini belgilashda o'ziga xos yo'nalishlarni tavsiflaydi.

Olingan ilmiy xulosalarga tayanib tabiiy resurslarni samarali foydalanishda soliqqa tortish mexanizmlarining qo'llanilishida bir qator ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni aniqladik hamda amaldagi jarayonni yanada takomillashtirish zarurati tug'ilganligini ham ta'kidlash mumkin.

Bugungi kunda amaldagi soliq tizimi doirasida amalga oshirilayotgan soliq ma'murchiligi hamda soliq undirish mexanizmlari tabiiy resurslardan samarali foydalanishda soliqlarning ta'sirchanligi soliqlarning adolatlilik tamoyili jihatdan yetarli emas. Bu esa, yuqoridagi aniqlangan ilmiy-amaliy muammolarning yechimlariga qaratilgan ilmiy takliflarni amaliyotga joriy etilishi o'z mazmuniga ega bo'lib, ularning aksariyati bugungi kunda joriy qilinishi natijasida ijobiy samarasini bera boshladi.

Mamlakatimizda soliq va budget siyosatining 2024-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan joriy yilda resurs soliqlari ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha amaldagi soliq qonunchiligiga bir qator o'zgartirishlar kiritildi. Xususan, yer solig'i stavkalari 12 %ga, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari o'rtacha 30 %ga hamda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 12 %ga indeksatsiya qilindi. Shuningdek, Bunda sement ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshning 1 tonnasi uchun belgilangan soliq stavkasi 22500 so'mdan, 6000 so'm qilib belgilandi. Ya'ni soliq stavkasi 3,75 barobarga pasaytirildi. "Navoiy kon metallurgiya kombinati" AJ va "Olmaldiq koln mektallurgiya kombinati" AJ uchun oltin bo'yicha 10 foiz va palladiy kumush, mis bo'yicha 15 foiz, "Navoyuran" DK uchun uran bo'yicha 16 foiz qilib belgilandi. Fikrimizcha, resurs soliqlari bo'yicha kiritilgan mazkur o'zgartirishlar tabiiy resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni ta'minlash bilan birga, budjetlarning daromadlari miqdorini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Tabiiy resurslar va ulardan foydalanish uchun majburiy to'lovlarning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari iqtisodiy, huquqiy, texnik va ijtimoiy asoslarga ega bo'lib, bu asoslar dunyoning aksariyat davlatlarida tabiiy resurslarga nisbatan texnik, iqtisodiy, huquqiy, sotsial munosabatlar yuzaga keltirilgan holda, uning muhim yo'nalishlari sifatida tabiiy resurslar bilan bog'liq majburiy to'lovlarni joriy qilish, uni amalga oshirish hamda uni zarurat sifatida takomillashtirib borish kabi jarayonlar tashkil etadi.

Dunyoda eng global muammolardan biri bu tabiiy resurslar cheklanganlik sharoitida aholining turli xil ehtiyojlarini qondirish, mamlakatlarning sotsial-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash yo'lida tabiiy resurslardan samarali va maqsadli foydalanishni ta'minlash masalalari bo'lib, bu yo'nalishda turli xil moliyaviy instrumentlardan foydalanishni taqozo etadi. Bu kabi moliyaviy instrumentlardan biri bu soliq tizimi bo'lib, davlat o'zining moliyaviy siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirishda cheklangan tabiiy resurslarni asrab avaylash, ulardan mamlakat taraqqiyoti uchun samarali foydalanish maqsadida majburiy to'lovlar taktikasini puxta va samarali

bo'lishiga alohida e'tibor qaratish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu jihatdan olganda, soliq tizimining muhim vazifalaridan biri sifatida tabiiy resurslardan foydalanuvchilaridan samarali foydalanishga undovchi (majburlovchi) va jamiyatning iqtisodiy hamda sotsial manfaatlari doirasida maqsadli foydalanishni ta'minlash bo'lmog'i lozim.

Yangi neft va gaz quduqlarining — ular foydalanishga topshirilgan oydan boshlab ikki yil muddatga hamda yangi neft va gaz quduqlariga nisbatan soliq imtiyozlarining amal qilish muddati tugagandan keyin uch yil davomida belgilangan soliq stavkasining 50 foizga kamaytirilgan soliq stavkasini qo'llash yer qa'ridan foydalanishda soliq to'lovchilarning investitsion faoliyatini rag'batlantirish orqali soliq tizimining ijobiy ta'sirini oshishiga olib keladi.

Qazib olingan foydali qazilmaning hajmi qazib olish, birlamchi ishlov berish, qayta ishlash va transportda tashish doirasida yuzaga keladigan texnologik yo'qotishlarni hisobga olgan holda, normalar doirasida, bunday normalar mavjud bo'lmaganda esa soliq to'lovchi tomonidan tasdiqlangan normalar doirasida aniqlanishi, soliq to'lovchilarga berilgan yer uchastkalari doirasida qazib olingan (ajratib olingan) hamda shaxsiy xo'jalik va maishiy ehtiyojlari uchun foydalanilgan, keng tarqalgan foydali qazilmalar, daryo o'zanlarini tozalash va qirg'oqlarni mustahkamlash ishlari natijasida qazib olingan (ajratib olingan) noruda foydali qazilmalarni soliq solish obyektidan chiqarish bu borada soliqlarning adolatlilik prinsiplarining amal qilishini ta'minlaydi.

Geologiya-qidiruv o'tkazish uchun ajratilgan yer uchastkalari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i solish obyektini hisoblanmasligi ajratilgan maydon va foydali qazilma turlaridan kelib chiqib litsenziya to'lovi joriy qilinishi, geologik o'rganishlar uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun har yillik litsenziya to'lovi respublika budjetiga – 70 %, viloyat mahalliy budjetiga-15 %, tuman (shahar) mahalliy budjetiga -15 % yo'naltirilishi soliq to'lovchilarning bir obyekt doirasida ikkita soliq turi bo'yicha soliq to'lovchi bo'lib qolish xavfini kamaytiradi va soliqqa tortish mexanizmining samaradorligiga erishiladi.

Suv iste'molchilari tomonidan foydalanilgan suv hajmi to'g'risida iste'molchilar kesimidagi ma'lumotlarning haqqoniyligini ta'minlash maqsadida suv inshootlariga ilg'or jahon standartlari asosida ishlovchi suvni o'lchash va boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini joriy etish natijasida orqali suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni optimal undirish mexanizmlari yaratiladi.

Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig'i joriy etish hamda foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibini amaliyotga joriy qilish yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni undirish hamda tabiiy resurslardan samarali foydalanishning ta'sirchanligini oshiradi.

Barcha turdagi suv iste'molchilari uchun majburiy bo'lgan "Suvdan foydalanish

to'g'risidagi yagona yillik hisobot shakli"dan foydalanish suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni undirishda soliq ma'murchiligining samarasi oshishiga xizmat qiladi.

Samarqand viloyati hududidagi barcha noruda foydali qazilmalar konlarida avtomatlashtirilgan nazorat tizimini joriy qilish hamda yer qa'ridan qazib olingan noruda foydali qazilmalar avtotransport vositalarida tashilishi tahlilini, tashish hujjatlaridagi yukni jo'natuvchilar va oluvchilar, yuklab jo'natiladigan noruda foydali qazilmalarning har bir turining nomi va miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlashni nazarda tutuvchi "Noruda foydali qazilmalarni nazorat qilish" avtomatlashtirilgan axborot tizimini davlat-xususiy sheriklik asosida ishlab chiqish noruda foydali qazilmalardan undiriladigan soliq tushumlarining yig'iluvchanligini oshiradi.

Har bir qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilma bo'yicha pulda ifodalangan realizatsiya qilish hajmlarini naturada ifodalangan realizatsiya qilish hajmiga bo'lish orqali alohida aniqlash hamda qazib olingan foydali qazilmadan shaxsiy ishlab chiqarish yoki xo'jalik ehtiyojlari uchun qisman foydalanilgan taqdirda, soliq bazasi qazib olingan foydali qazilmaning butun hajmi hisobida, ushbu foydali qazilmaning o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida, foydali qazilmani realizatsiya qilishning o'rtacha olingan narxidan kelib chiqqan holda aniqlash uslubiyoti yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bazasini to'g'ri aniqlash imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi. O'zbekiston Respublikasi 2013 yil 26 dekabrda O'RQ-360-son Qonuni bilan tasdiqlangan.
2. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-aprelda O'RQ-598-I-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan.
3. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda "2024-yil uchun Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-886 sonli Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevralda "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-27-sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda PF-158-sonli "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda PF-6121-sonli "Resurs soliqlari va mol-mulk solig'ini yanada takomillashtirish

to‘g‘risida”gi Farmoni.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-sentyabrdagi PF-6061-sonli “Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi “Soliq ma‘muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5116-son Farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-maydagi “Yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish borasida nazoratni kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlari yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5065-son Farmoni.